



**BUXORO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI**

BUXORO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

**2022- YIL
YANVAR-AVGUST**



2022- yilning yanvar-avgust oyida, Buxoro viloyatida jami **5 292,9** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2021- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **100,5 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.




2022- yil 1- sentyabr holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, birlikda



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



1 788

Bino va inshootlar qurish

349

Fuqarolik obyektlarini qurish

835

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 102,2 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 60,2 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,1 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 11,7 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 135,3 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 28,1 foiz ulushni va 93,1 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

	Holatiga :		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.09.2021- y.	01.09.2022- y.	
Buxoro viloyati	2 907	2 972	102,2
Buxoro shahri	970	964	99,4
Kogon shahri	119	133	111,8
<i>tumanlar:</i>			
Olot	77	79	102,6
Buxoro	233	227	97,4
Vobkent	126	124	98,4
G'ijduvon	197	201	102,0
Kogon	145	146	100,7
Qorako'l	114	115	100,9
Qorovulbozor	53	58	109,4
Peshko'	159	183	115,1
Romitan	236	262	111,0
Jondor	243	235	96,7
Shofirkon	235	245	104,3



2022- yil 1- sentyabr holatiga ko'ra Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Buxoro sh. (32,4)



Romitan t. (8,8)



Shofirkon t. (8,2)



Qurilish ishlari 2022- yil yanvar-avgust uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	5 292,9	828,5	2 887,8	1 576,6
Buxoro sh.	1 320,0	121,1	937,5	261,4
Kogon sh.	336,0	217,6	92,3	26,1
tumanlar:				
Olot	320,6	87,9	103,4	129,3
Buxoro	389,2	17,2	230,9	141,1
Vobkent	146,2	-	71,0	75,2
G'ijduvon	474,6	0,4	225,3	248,9
Kogon	374,4	62,8	191,2	120,4
Qorako'l	223,1	6,0	108,3	108,8
Qorovulbozor	267,4	177,1	73,4	16,9
Peshko'	338,5	-	222,3	116,2
Romitan	460,9	114,5	182,2	164,2
Jondor	281,0	-	190,3	90,7
Shofirkon	361,0	23,9	259,7	77,4





2022- yilning yanvar-avgust oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 828,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning mos davriga nisbatan 77,1 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yildagi ko'rsatkich darajasidan 4,5 % punktga kamayib, 15,6 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari 2022- yil yanvar-avgust uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 66,3 % i yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 73,3%), Kogon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 64,7% i yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 111,6 %), ga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2022- yilning yanvar-avgust oyida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 54,6% i to'g'ri kelib, 2021- yil yanvar-avgust ko'rsatkichiga nisbatan 2,8 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 104,3% ni tashkil etgan holda 2 887,8 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



54,6

2022-yil
Yanvar-avgust

51,8

2021- yil
Yanvar-avgust



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Shofirkon tumanida (259,7 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 71,9 %), Buxoro shahrida (937,5 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 71,0 %) va Jondor tumanida (190,3 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 67,7%) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **29,8 %** ni tashkil etdi yoki **1 576,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning mos davriga nisbatan **110,0 %** ni tashkil etdi.




Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **360,7** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4 932,2** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **6,8 %** va **93,2 %** ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-avgust

2021- yil yanvar-avgust



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi
2022- yil yanvar-avgust oyida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **65,5 %** i yoki **3 468,9** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

11,8 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **408,9** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **11,8 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1 677,0** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **48,3 %** ni tashkil etdi.

48,3 %

39,9 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1 383,0** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **39,9 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-avgust oyida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan foizda
Buxoro viloyati	5 292,9	100,5	100,0
shahar:			
Buxoro sh.	1 320,0	106,7	24,9
Kogon sh.	336,0	105,2	6,3
tuman:			
Olot	320,6	102,3	6,1
Buxoro	389,2	100,2	7,3
Vobkent	146,2	113,6	2,8
G'ijduvon	474,6	100,1	9,0
Kogon	374,4	95,3	7,1
Qorako'l	223,1	108,3	4,2
Qorovulbozor	267,4	82,9	5,1
Peshko'	338,5	120,0	6,4
Romitan	460,9	78,2	8,7
Jondor	281,0	103,0	5,3
Shofirkon	361,0	106,0	6,8



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 6,2 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-avgustdagi ko'rsatkichga nisbatan 1,9 % punktga ko'paydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,8 % punktga kamayib, 48,5 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,9 % punktga ko'payib, 45,3 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 21,2 % ni tashkil etdi va 2021- yil yanvar-avgustga nisbatan 0,9 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 78,8 % (0,9 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari




Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

2021- yil
yanvar-avgust




2022- yil
yanvar-avgust

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning mos davriga nisbatan 10,0 % punktga kamaydi va 42,6 % ni tashkil etdi. Qolgan 57,4 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 10,0 % punktga ko'paydi.





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-avgust


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	5 292,9	3 479,0	1 237,5	576,4
<i>shahar:</i>				
Buxoro sh.	1 320,0	817,9	382,7	119,4
Kogon sh.	336,0	234,5	80,0	21,5
<i>tuman:</i>				
Olot	320,6	176,7	45,5	98,4
Buxoro	389,2	286,2	77,0	26,0
Vobkent	146,2	107,2	29,5	9,5
G'ijduvon	474,6	376,7	72,8	25,1
Kogon	374,4	256,5	91,0	26,9
Qorako'l	223,1	159,3	46,7	17,1
Qorovulbozor	267,4	61,4	70,4	135,6
Peshko'	338,5	241,9	70,6	26,0
Romitan	460,9	338,0	105,5	17,4
Jondor	281,0	193,4	63,9	23,7
Shofirkon	361,0	229,3	101,9	29,8



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-avgust



ulushi % da



	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming. so'm	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	2 668,3	98,9
<i>shahar:</i>		
Buxoro sh.	4 629,9	105,4
Kogon sh.	5 358,4	103,5
<i>tuman:</i>		
Olot	3 152,6	100,9
Buxoro	2 253,9	98,4
Vobkent	1 015,5	111,9
G'ijduvon	1 516,7	98,5
Kogon	4 599,0	93,4
Qorako'l	1 328,6	106,7
Qorovulbozor	13 929,3	80,4
Peshko'	2 662,9	117,9
Romitan	3 140,0	76,9
Jondor	1 562,7	101,4
Shofirkon	1 980,4	104,3



**Hududlar kesimida aholi jon boshiga
qurilish ishlari
2022- yil yanvar-avgust uchun**



Hududlar kesimida 2022- yil yanvar-avgust oyida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Qorovulbozor tumani — 13 929,3 ming so'm (yoki, 2021-yilning mos davriga nisbatan 80,4 %), undan keyin mos ravishda Kogon shahri – 5 358,4 ming so'm (yoki 103,5 %), Buxoro shahri – 4 629,9 ming so'm (yoki 105,4 %), Kogon tumani— 4 599,0 ming so'm (yoki 93,4 %) va Olot tumani – 3 152,6 ming so'm (yoki 100,9 %) egalladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: **(65) 223-81-99**